

Mohinur Azimqulova

TDSHU 1-kurs talabasi

Tel: +998991671235, e-mail: mokhinurazimkulova@gmail.com

Ilmiy rahbar:

filol.f.d., prof. v.b. Xayrulla Hamidov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda yurtimizda Ogahiy hayoti, asarlari, ijodi yuzasidan olib borilayotgan islohotlar, keng ko‘lamli chora-tadbirlar, shuningdek, Ogahiy o‘rnatgan ustoz-shogird an‘anasi, xalqparvarlik, inson kamoloti mavzulari tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘z va iboralar: *Xalqparvarlik, insoniylik, mumtoz adabiyotshunoslik, tarbiya, odob.*

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, проводимые в нашей стране, масштабные мероприятия, а также традиции наставничества, патриотизма и человеческого развития, заложенные Огахи.

Ключевые слова и выражения: Народный патриотизм, гуманизм, классическая литература, образование, манеры.

Abstract: In this article, the reforms, large-scale measures, as well as the teacher-disciple tradition established by Ogahi, patriotism, and human perfection are analyzed in our country.

Key words and expressions: People's patriotism, humanitarianism, classical literature, education, manners.

O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning qo‘lyozma asarlarini keng targ‘ib qilish bo‘yicha yurtimizda bir qator islohotlar olib borilmoqda. Biz Muhammad Rizo Ogahiyni har uch yo‘nalishda samarali ijod qilgan adib deya tarannum eta olamiz. Atoqli shoir, tarixnavis olim, mohir tarjimon, davlat va siyosat arbobi Ogahiy o‘z davrining yetuk ijodkorlaridan biri bo‘lgan desak yanglishmaymiz. Ogahiy asarlari zamon bilan hamnafas yurishi bilan birga, yoshlarimiz ongiga vatanparvarlik, insoniylik, mehr-oqibat tuyg‘ularini jo etadi, hozirgi yosh avlod milliy ruh, xalqparvarlik tushunchalari bilan ulg‘ayishiga yordam beradi. *Ogahiyning fikricha, oddiy xalqqa xizmat qilish ma‘naviy qashshoqlanishning oldini oluvchi choradir. Xalqqa xolis xizmat qilgan kishining martabasi baland, elda quyoshdek aziz bo‘ladi.* Bu g‘oya Ogahiy pedagogik qarashlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Inson ma‘lum bir jamiyatda hayot kechirib, tarbiyalanar ekan, shu jamiyat a‘zolari bilan muloqotda yashamog‘i kerak.⁶¹

⁶¹ <https://tafakkur.net/muhammad-rizo-ogahiy.haqida>

Ma'lumki, Ogahiy xon saroyida mirob lavozimida ishlaydi, xizmat doirasidan tashqarida Ogahiy oddiy xalq dardini eshitar, ularga ham ma'nан ham moddiy taraflama yordamini ayamas edi. Uning fikrlashicha, jamiyat sog'gom fikrli bo'lib tarbiyalansa, ma'rifat nuri hamma bo'ylab bir xilda nur sochsa oddiy xalq barkamol topadi, oq-qorani ajratadi. Jamiyatni ma'naviy qashshoqlikdan olib chiqishning birdan bir yo'li ular tafakkurini oshirish, jamiyatda bo'layotgan har xil kuchlarga qarshi kurashishdir. Shuning uchun ham Ogahiy ijoddan bo'sh vaqtlarida va'zxonlik, adabiy kechalar tashkil etar, xalq turmush tarzi bilan yaqindan tanishar edi. Ogahiy xalq ma'naviyatini oshirish uchun ilm darkorligi, bu yo'lda ma'rifatparvar insonlar yetishib chiqqanligini bod-bod takrorlab xalq ongiga quyar edi. Bu ishlar samarasida Ogahiy, agar, jamiyat sog'gom fikrli bo'lsa, o'z dunyoqarash, fikriga ega bo'la olsa kelajak avlod tarbiyasi uchun juda muhim deya ta'kidlar edi. *Ogahiy insonning kamolga yetishishi uchun yoshligidan ilm va kasb hunar egallashi shart ekanligini ta'kidlaydi. Uningcha, ilm-ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida kuchli vositadir, ilmlarni egallah har bir musulmon uchun ham qarz, ham farz.* Inson qadr-qimmati uning «simmu zari» (oltin va kumushi) bilan emas, ilmu hunari, «ojizu bechoralar»ga ko'rsatadigan himmati bilan baholanadi. Ogahiy odamlarni shunday fazilat sohibi bo'lishga da'vat etadi. Ogahiy ilmga intilishni yuqori baholaydi va har bir inson ilmlarni egallashi zarurligini aytadi⁶².

Muhammad Rizo Ogahiy o'z ijodiy faoliyatida insoniy eng yaxshi fazilatlarni — ilm o'rganib jamiyat farvonligi yo'lida xizmat qilish deya te'kidlaydi. U do'stlikni, mehmondo'stlikni, axloqiy go'zallikni ulug'laydi. Insonlarni ziyraklikka, to'g'ri so'zli bo'lishga chorladi. Uning bu fikr, o'gitlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir.

Ko'rib turganimizdek, hozirgi kun hikmatiga ham to'g'ri keluvchi bu oltinga teng so'zlar hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Ogahiy nafaqat tarixchi, tarjimon, shoir sifatida elda ulug'landi balki uning ma'rifat nurini tarqatishi ham xalq uchun o'rnak va maktab bo'ldi desam yanglishmayman. Ogahiy asarlari tavsifidagi millatparvarlik tushunchalariga yuz tutadigan bo'lsak, "Sevishganlar tumorı" asarini eslamay ilojimiz yo'q. Devonda yuksak insoniy his-tuyg'ular ifodalangan. Uning she'rlari o'zbek va tojik tillarida jilo sochib, insoniylikni, ikkiyuzlamachikni qoralagan.

"Mehnatlash va zahmatlash elga yaqinlik, oddiy kishilar qismati uchun chin dildan kuyinish va o'zini favqulorra mas'ul sezishda Muhammad Rizo Ogahiy o'z zamonasining Rumiysi, Navoiysi edi desa aslo xato bo'lmaydi. Ogahiyning yurakbag'rini yondirgan azoblar iqtisodiy ahvoli nochor, choraszlikni chora o'rnida ko'rishdan boshqa imkon yo'q kishilarning azobuqubatlari edi"- deb yozadi Ibrohim Haqqul.

⁶² <https://tafakkur.net/muhammad-rizo-ogahiy.haqida>

Ogahiy chin ma‘nodagi millatsevar ijodkordir. Uning mana bu g‘azali ahvoli tang, nochor kishilar hayoti haqidadir:

Ul gado holiga rahm et g‘anikim, kechalar
Qochurub uyqusin, aylar didasin giryon sovuq.
Eski to‘n, ko‘hna po‘stindin tavaqqufsiz o‘tub,
Barcha a‘zoni qilib sust, etti qasdi jon sovuq.

Bu misra sovuqda qiynalayotgan va shu sababli ham kechalar “*Qochurub uyqusin*” najot qidirib, qashshoqchilikda umr kechirayotgan xalq hayotini ochib beradi. Yuqorida Ogahiy insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgani haqida ko‘rib o‘tdik. Misollarga yuzlanadigan bo‘lsak:

Kibru naxvatdur batar insong‘a kufru shirkdin,
Kofir o‘lsang o‘l va lek bo‘lma xudbin, ey ko‘ngul.

“ey ko‘ngul” radifli g‘azalida xudbinlik, yolg‘onchilik, kibr-u havo kabi yomon illatlar qoralanadi. Shoir hattoki kofir bo‘lib o‘lsang ham mayli, ammo hudbin bo‘lib o‘lma demoqchidek go‘yo. Jumlada to‘g‘ri xulosa chiqaradigan bo‘lsak: kofir bo‘lib o‘lishingning jazosi xudbin bo‘lib o‘lishdan yengilroqdir deyilmoqda.

Odam ersang bosma gustoxtona tufroqniki,
ul Sarbasar og‘ishta ajsomi bani odam bila.

Odam farzandlarining jasadlari dafn qilinganligi uchun tufroq uzra qadam bosganda andisha va odobni unutmaslikka da‘vat qilgan shoirning tiriklarga mehri qanday bo‘lganligini tasavvur etsa bo‘ladi. Ammo shu bilan birga Ogahiy hayotga yuzaki qaraydigan, insonni kitobiy gumanizm bilan ulug‘lashga moyil ijodkor ham emasdi⁶³.

Bori olamning shumu badbaxti ul odamdur,
Ki buxlu, xassatu, kibru hasad ondin bo‘lur voqi’.

Ogahiy an‘anaviy ishq mavzuida qalam tebratgan shoir. U hayot, tiriklik va go‘zallik mazmunini shu ishqidan axtargan va topgan. U ishq va muhabbat zavqini – insonni sevish, insonga mehr ko‘rsatishda deb bilgan. Va shu ma‘noda ko‘rgan, bilgan haqiqatlarini xilma-xil ohanglarda she’rlarida aks ettirgan. Shu ishq uning qalbini ilohiy va samoviy hislarga oshno aylagan.⁶⁴

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, yurtimizda Ogahiy ijodini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan islohotlar haqida tasniflaydigan bo‘lsak, Ogahiy boshlab bergen tarjimachilik mакtabining davomini hozirgi talantli tarjimonlarimiz davom ettirishmoqda. Yaqin yillarda qilinayotgan tarjima borasidagi qator islohotlarga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jonbozlik ko‘rsatmoqda. Ya‘ni o‘tgan yili Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostoni nasriy bayoni Ilyosxon Bahromov tomonidan arab tiliga tarjima qilinib, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etildi.

⁶³ «MUHAMMAD RIZO OGАHIYNING O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari

⁶⁴ “Navoiy universiteti” nashriyot matbaa uyi Terishga 2020-yil 15-mayda berildi. Bichimi 84x108. 1/16. Cambria garniturasida tayyorlandi. 16 shartli b.t. 15,5 hisob nashr b.t. (elektron nashr)

Shuningdek “Boburnoma” asarining italyan tiliga tarjima qilinishi tarjimashunoslik sohasi uchun ulkan yutuq olib keldi.

Ogahiy ijodini keng ko‘lamli targ‘ib etish bo‘yicha bir qator loyihibar ishlab chiqilgan. Bulardan biri, 2019-yil prezidentimiz tashabbuslari bilan Xorazm viloyati Xiva shahri Qiyot mahallasida 194 nafarga o‘quvchiga mo‘ljallab ochilgan Ogahiy ijod maktabi so‘zimiz isbotidir. Shuningdek, ushbu viloyatda Ogahiy uy-muzeyi, Ogahiy bog‘lari tashkil etilgan.

Umuman olganda, maqolada Ogahiy asarlarining hozirgi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, she’rlarining mazmundorligi va so‘nggi yillarda adib xotirasiga bag‘ishlanib o‘tkazilgan bayram, tadbirlar haqida gap bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1] – <https://tafakkur.net/muhammad-rizo-ogahiy.haqida>.

[2] – <https://tafakkur.net/muhammad-rizo-ogahiy.haqida>

[3] – MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari

[4] – “Navoiy universiteti” nashriyot matbaa uyi Terishga 2020-yil 15-mayda berildi. Bichimi 84x108. 1/16. Cambria garniturasida tayyorlandi. 16 shartli b.t. 15,5 hisob nashr b.t. (elektron nashr)

5. <https://ogahiy.tsuos.uz/en/xalqaro-ogahiyshunoslar-kengashi/>

